

Tursunniyozov Baxtiyor Zoirovich

*Navoiy viloyati Xatirchi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
maxusu fan o'qituvchisi*

+998944549611 baxtiyorkarimov90@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola ta'lim tizimini yanada isloh qilish, respublika miqyosida yetakchi kadrlarni tayyorlash hamda ularning bilim darajasini yuksaltirishda pedagoglarning say harakatini yanada yuksaklarga chiqarish.*

Kasbim-faxrim degan shior menga shu qadar shijoat, g'urur baxsh etadiki pedagog bo'lganimdan faxrlanaman. Nimaga deysizmi, o'z bilim va malaka ko'nikmalaringizni o'quvchilarga dars jarayonida o'rgatish siz uchun qanchalik sharfli ekanligini yurakdan his qilmasangiz uni qanchalik shirin tuyg'u ekanligini bila olishiz qiyin. Prezidentimizning biz pedagoglarga ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorida aytib o'tganlaridek yurtga kerakli kadrlarni yetishtirish bu albatta pedagoglarning xizmati yuqori ekanligi yuz bor ta'kidlab o'tadilar. Shunday ekan yurtimizni sifatli kadrlar bilan ta'minlash biz pedagoglarning oliy maqsadimiz ekanligini unutmashimiz darkor.

Pedagogika sohasiga qadam qo'yishimga eng avvalo ota onamning xizmatlari juda katta. Shu sohaga ilk qadam qo'yganimda ota onamning xursandchligini ko'rib boshqacha bo'lib ketganman, ularning yagona ishongani men bo'lganimgami yoki shu kasbni shunchalik hurmat qilishligimio bilmadim mendanda ko'p xursand bo'lgan insonlar bu mening otam va onam hisoblanishadi. Shuning uchun bu ishonchni va mehrni oqlamoq uchun o'zimda shijoat va g'urur bilan ishlashda davom etdim. Oz bo'lsada otamning say harakatlari mevasini ko'rish nasib qilgan bo'lsada lekin ko'nglimda otamni orzularini amalga oshirishga kech qolganligimni o'ylasam o'zimdan nafratlanib ketaman. Chunki bu kasbni tanlamasimdan oldin hayotda juda ko'p past baland yo'llarni bosib o'tdim, kimlarnidir tama toshlariga chidab yo'limda davom etdim, o'tgan kunlarimdan nolimayman shunday kunlarni ko'rganimga allohimga ming bor shukrlar aytaman, ya'ni hayotning past balandi insonni shu qadar metn va bardoshli qilib tarbiyalar ekanki buni pedagoglik faolitatimni boshlab bildim. Insonning o'sishi va rivojlanishi uchun albatta qandaydir bir turtki yoki motivatsiya kerak ana shundagina yuksalish va hayotda o'z o'rnini topishga bo'lgan shijoat bilan yashaydigan bo'lib tarbiyalanadi.

Nimaga men o'z maqolamni pedagogning bir kunlik ish kuni deb nomladim, bu kasbni tanlab pedagoglarning naqadar ish foaliyati qiyinligini sezdim, ish jarayonini tushunib yetdim, o'zidagi bilim va ko'nikmalarni o'quvchi yoshlarga yetkazish yo'llarini o'rgandim, shunday ekan har bir pedagogning ish mehnat faoliyatini kuzatish va o'rganish uchun bir kun yetarli ekanligini ta'kidlab o'tmoqchiman. Negagiki ana shu

bir kun davomida pedagogning barcha o'y fikrlari dars va o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ekanligini ko'rib ko'zingiz quvnaydi. O'z faoliyatini sidqi dildan bajaraotgan bizning kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarga o'z bilim va malaka ko'nikmalarini berishdan charchamaydigan haqiqiy yurt karvonlaridan biri desam adashmagan bo'laman, negagiki men buskga qadam qo'ymasimdan oldin men ham ta'lim olgan o'z bilimlarini berib bizlarni yurtga kerakli kadr qilib tayyorlashda eng yetakchi insonlarimizdan biri bu albatta hech shubhasiz pedagogdir.

Shunday insonlarni e'zozlamasak, yuksaklarga ko'tarmasak, ularga o'z mehrimizni sevgimizni bermasak biz qanday insonmiz deydi prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. Shuning uchun yurtimizni yuksaklarga ko'tarishda malakali, tajribali yetuk bilimga ega bo'lgan insongina abuni amalga oshira oladi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar har bir yosh avlodni yetuk kadr bo'lib yetishib chiqishida asosiy mezon bo'lgan "Yangi yurt-yangi kelajak bilan" degan shior haqiqiy pedagogning asosiy vazifasni belgilab berishi bejiz emas.

Yurtga kerakli insonligizni bilib yashash sizga shu qadar g'uru baxsh etadiki buni o'zingiz his qilib bilmasangiz so'z bilan tariflashga til ojiz. Kasbim-faxrim degan shior har bir kasb egasini haqiqiy mehr muhabbatini aks ettira oladi desam aslo adashmagan bo'laman, chunki o'zim tahsil olgan Xatirchi Tibbiyot kolleji hozirda prezdimizning 2020-yildagi qaroriga muvofiq Xatirchi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi deya nom olgan o'quv maskanida menga ta'lim tarbiya bergan ustozlarim bilan bir qatorda o'quvchilarga bilim berib kelayotganimdan albatta faxrlanaman bu menga o'z ustimda ishlashimga yanada motivatsiya bera oiladi deya olaman. Bunday kunlarga yetib kelishimda albatta bu mening onam va joylari jannatdan bo'lsin otajonim hisoblanadi. Ular bergan tarbiya bilan shunday yuksak kasb egasi bo'ldim, yurtga kerakli inson qilib tarbiyalagni uchun ulardan bir umr qarzdorman. Ular qatori yana menga o'z bilim va ko'nikmalarini bergan ustozlarim hozirda ishlayotgan maskanim direktori Uyg'un Sag'dullayevich To'raqulov, Muqaddas Abduolimovna Hamroqulova, Ruzibiyi Azamatovna Kamolova, Noila Xudoyberdiyevna Abdumurotovalar orqasidan mana shu kasbni egallashim sababchilari hisoblanishadi va ularga boshim yerga tekkunicha ta'zimda ekanligimni bildirib qolaman. Sizlar bilan bir safda o'quvchilarga bilim va amaliy ko'nikmalar berib kelayotganimdan faxrlanaman. Shunday buyuk kasb egasi bo'lganimdan hamda meni qo'llab quvvatlovchi barcha yaqinlarimga o'z minnatdorchiligimni bildirib qolaman. Shunday ekan "Har bir inson oxirgi kungacha o'z tarbiyasi bilan shug'ullanishi kerak" degan fikrlar ham bu gaplarimning isboti hioblanadi.

Band bo'ling, bu dunyodagi eng arzon dori va eng samaralilaridan biridir degan shior esa har bir yosh avlod uchun kerak bo'ladigan ko'nikma hisoblanadi.

Prezidentimizning ta'limga bergan fikr mulohazalari meni shu qadar o'ziga jalb qiladiki ularni o'qib har shaxsga kerakligini ta'kidlab o'tmoqchiman:

Agar mendan sizni nima qiynaydi? deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman degan fikrlari meni ko'nglimni jumbushga keltiradi.

Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan degan gaplari esa meni va menga o'xshagan pedagoglarning asosiy vazifamiz nima ekanligini unutmasligimiz uchun aytilgan fikr deya olaman albatta va shu asnoda meni dunyoda keltirgan onajonimga atalgan she'r bilan yakunlashga izm bersangiz.

Tunda chirog'imsiz, kunda quyoshim,
Mehr daryosiga to'lgan insonim.
Duolaringiz sabab qanotim yozib,
Uchmoqqa tayyorman sizla qanotim.